

**Alimova Maftuna  
Jizzax davlat pedagogika universtiteti Boshlang'ich ta'lif fakulteti  
Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi**

---

## **OILADA FARZAND TARBIYASINI TO'G'RI TASHKIL ETISH – TARBIYANING BOSH OMILI SIFATIDA**

**Maqasdi:** Ushbu maqolada bolalarni ijtimoiy hayotga moslashishida, ta'lif olishida va jamiyat qonun-qoidalarini o'zlashtirishdagi to'siqlarini yengishda oilaviy muhitning ahamiyati va ta'lif muassasalarini vazifalari va burchlari haqida.

**Kalit so'zlar:** Moslashuv, ta'lif berish, tarbiyalash, shaxs kamoloti, shaxsiy xususiyatlar.

---

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur. Tarbiyaning mazmuni shaxsnинг shaxsiy shakllanishiga qo'yiluvchi, ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarbiya yo'lida metodlar umuman mazmun bilan emas balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

**Tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlari:** Tarbiyajarayonida tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olish juda zarur va maqsadga yaqin bo'ladi.

Darhaqiqat maktabgacha ta'lif bola shaxsini sog'lom va yetuk makabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakillantirish maqsadida tashkil etadi. Ushbu ta'lif bolaning 6-7 yoshga to'lgunga qadar davrini o'z ichiga oladi. Bu davrda ota-onalar farzandlariga nihoyatda ko'p vaqt ajratishlari kerak bo'ladi. Kelajakda o'zidan shaxs tushunchasini topa olishi kerak. Bunga esa ota-onalarimizning ko'magi, mehr va muhabbatilari zarur. Chet el tadqiqoqlariga ko'ra 3-7 yosh bolalar 5 tadan ziyod tillarni o'rganishlari mumkin ekan.

**Hozirgi zamон talabi esa kamida 2 tadan ortiq tilda gaplasha olishimiz kerak ekan.**

Tarbiyaning o'chog'i – oiladir. Oilamizning muhiti sog'lom bol'sa, bu oilaning farzandi tarbiyalni va xushmuomalali bo'ladi deb o'ylayman. Farzandlariga ona qornida yurak urish davridayoq bilim berish kerak. Ona shu davrda ko'p kitob o'qishi lozim.

Biz oilani "kichik vatan" deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-ona farzandining birinchi o'qituvchisidir. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Farzandiga o'zi o'rnak bo'ladigan fazilatlari bilan misol bo'ladigan ota-onaning farzandi kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmli, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo'ladi.

**Taniqli pedagog A.S.Makarenko** 5-yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyatini shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekani qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan:

**"tarbiyaning bosh asosi besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayoning 90%ni tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi."**

Farzand kamoli uchun sarflangan mablag' va vaqt ertangi farovon hayot uchun asos bo'ladi.

Agar ota-onalarning farzandiga, uning tarbiyasiga e'tibor bermasa bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Zero, bizni chaqqan ilonning ortidan chopsak, ilon zahrining butun tanamizga yoyilishiga sababchi bo'lamicha. Bu holatning oldini olish uchun ilonning ortidan yugurish emas, uning oldini olish kerak. Shunday ekan bolaga yoshligidan befarq bo'lmay, uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tibor berish lozim.

**Shu o'rinda Abdulla Avloniy bobomiz aytgan iboralarini qo'llash joizdir:**

**Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot,**

**yo najot-yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasiidir.**

Darhaqiqat bobolarimiz huddi kelajakni ko'ra olishgandek tarbiyaviy va ta'limiy iboralarni juda ko'p qo'llashgan.

Hozirgi kunda ota-onalar farzandlariga yetarlicha vaqt ajratishmayaptimi?

Farzandlariga to'yguncha mehr berishmayaptimi?

Ota-onalarimizning ko'proq vaqt ni maga sarflanadi ? ... - degan savollar juda ko'p.

Albatta bu savollarga ko'pchilik oddiy qarashadi deb o'ylayman. Lekin bu juda achinarli. Chet elda farzandlar balog'atga yetishganida ota-onalarini tashlab ketishadi. O'zлari mustaqil kun o'kazishadi. Bu chet eldag'i hayot tarzi deyishingiz mumkin. Lekin guruch ko'rmaksiz bo'lmaydi deganlaridek o'zimizda ham bunday voqealarga duch kelishimiz mumkin. Bunday hodisalarining sababi nima deb o'ylash mumkin. Bularning ildizida tarbiya yotadi. Hayotimizning asosini tarbiya tashkil etar ekan. Hozirgi kunda har bir oilada o'zning shaxsiy kutubxonalari bo'lishini xoxlardim.

Buni esa biz metod sifatida sinflar bo'yicha ham qo'llash mumkin. Kitob o'qiydigan boladan yomonlik chiqmaydi deb o'ylayman.

Hozirgi kunda farzandlarimizga nimalarni o'rgatish kerak.

1. Salomlashish odobi
2. Vatanparvarlik tuyg'usi
3. Oilaga muhabbat
4. Kattalarni hurmat qilish
5. Rostgo'y bo'lishni
6. Ota-onaga hurmat
7. Ustozlarga ehtirom

Ota-onalarning maktabalar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda Bolani chiroyli odob-axloql, ilmlи, tarbiyalı, qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala hisoblanadi. "Bir bolaning tarbiyasiga yetti mahalla ota-onalarning" deganlari ham bejiz emas.

Bolani tarbiyalashda agar muktab yoshida bo'lsa ota-onalarning maktab hatto mahalla ham yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab yashnaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**

O'z nutqlarida bolalar tarbiyasida mahallaning o'rni kamayib borayotganligini, ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf-aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligini qayd etdilar.

Oilada farzand dunyoga keldiki, demak ota-onasining ma'suliyati ikki karra oshgani demakdir. Sababi jamiyatga yetuk shaxs yetishtirishi uchun ota-onalardan birdek tarbiya berishi lozim. Zero, farzand ota-onasining oiladagi aksidir. Farzand oilada nimani ko'rsa, nimani eshitsa shunga rioya qiladi. Oilada har bir bolaning voyaga yetguncha tarbiyasini, tandirdagi olovga qiyosladim. Sababi olovga qancha ko'p o'tin qalansa, u shuncha kuchli yonadi. Tarbiya ham qancha kuchli va e'tiborli berilsa, farzandning tarbiyasi ham shunchali chirolyi va na'munali bo'ladi.

### **Xulosa**

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bolaning tarbiyasida o'tmishdan bizgacha yetib kelgan bobolarimizning tarbiyaga oid asoslarini farzandlarimizga o'qib berishimiz va real hayotda ham qo'llashimiz lozim. Zero ota-bobolarimizdan yomon insonlar chiqmagan. Farzandlar ota-onaning ko'zgusi deyishadi. Farzand oilada eshitganini emas, ko'rganini qilishadi .Ota-onalardan vaqt ajratib kitob o'qisa, farzand ham albatta kitob o'qiy boshlaydi. Kelajagimiz chirolyi bo'lishi uchun, bugunimizni tartibga solishimiz kerak.